

ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOШKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**  
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:  
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**  
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR  
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**  
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN  
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**  
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA  
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**  
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**  
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION  
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**  
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR  
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**  
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY  
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**  
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:  
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**  
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI  
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**  
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION  
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**  
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE  
 MANAGEMENT.....64

**13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

**14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.**

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

**TARIX**

**1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.**

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

**2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.**

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

**3. Otamuradova Roviyajon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.**

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

**4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.**

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

**5. Саидов Шавкат Жумабаевич.**

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

**6. Salayev Umrbek Kadambayevich.**

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

**7. Safarov Tolib Todjiyevich.**

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

**8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.**

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

**FILOLOGIYA**

**1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.**

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

**2. B.Q. Sapayeva.**

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**  
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**  
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**  
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**  
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

## PEDAGOGIKA

- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**  
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**  
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**  
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**  
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**  
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**  
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

## PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**  
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**  
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**  
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

## PEDAGOGIKA

**RAJABOV SHAXZODBEK BAXROM O'G'LI**Urganch davlat pedagogika instituti San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi  
shaxzodrajabov0104@gmail.com**UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO'LAJAK MUSIQA  
O'QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157728>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchisining badiiy mahoratini oshirish masalalari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida badiiy mahoratning o'rnı va ahamiyatini aniqlash hamda uni rivojlantirishning samarali yo'llarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va amaliy tajriba metodlaridan foydalanildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, badiiy mahorat musiqiy eshitish, ijrochilik qobiliyati, sahna madaniyati, estetik did va ijodiy yondashuv kabi komponentlarning uyg'unligi asosida shakllanadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, ijodiy faoliyat, sahna chiqishlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish badiiy mahoratni rivojlantirishda muhim omillar sifatida namoyon bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** badiiy mahorat, musiqa ta'limi, pedagogik tayyorgarlik, ijrochilik qobiliyati, sahna madaniyati, estetik did, ijodiy faoliyat, pedagogik kompetensiya.

**РАДЖАБОВ ШАХЗОДБЕК БАХРОМ УГЛИ**Ургенчского государственного педагогического института,  
преподаватель кафедры искусствоведения  
shaxzodrajabov0104@gmail.com**ПОВЫШЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ  
МУЗЫКИ В ПРОЦЕССЕ ОБЩЕЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы развития художественного мастерства будущих учителей музыки в процессе общей педагогической подготовки с научно-теоретической и методической точек зрения. Основной целью исследования является определение роли и значения художественного мастерства в профессиональной подготовке учителей музыки, а также обоснование эффективных путей его развития. В ходе исследования использованы методы педагогического наблюдения, анализа, сравнения, обобщения и элементы практического эксперимента.

Результаты показали, что художественное мастерство формируется на основе взаимосвязи таких компонентов, как музыкальный слух, исполнительские навыки, сценическая культура, эстетический вкус и творческий подход. Кроме того, установлено, что практические занятия, творческая деятельность, сценические выступления и использование современных педагогических технологий являются важными факторами развития художественного мастерства.

**Ключевые слова:** художественное мастерство, музыкальное образование, педагогическая подготовка, исполнительские навыки, сценическая культура, эстетический вкус, творческая деятельность, педагогическая компетентность.

**RAJABOV SHAKHZODBEK BAKHROM UGLU**

**Urgench state pedagogical institute teacher of the department of art studies,  
shaxzodrajabov0104@gmail.com**

### **IMPROVING THE ARTISTIC MASTERY OF FUTURE MUSIC TEACHERS IN THE PROCESS OF GENERAL PEDAGOGICAL TRAINING**

**Abstract.** This article examines the development of artistic mastery of future music teachers within the process of general pedagogical training from scientific-theoretical and methodological perspectives. The main aim of the study is to determine the role and significance of artistic mastery in the professional preparation of music teachers and to substantiate effective ways of its development. The research employed methods such as pedagogical observation, analysis, comparison, generalization, and elements of practical experimentation.

The results revealed that artistic mastery is formed through the integration of components such as musical hearing, performance skills, stage culture, aesthetic taste, and creative approach. In addition, practical training, creative activities, stage performances, and the use of modern pedagogical technologies were identified as key factors in enhancing artistic mastery.

**Keywords:** artistic mastery, music education, pedagogical training, performance skills, stage culture, aesthetic taste, creative activity, pedagogical competence.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va estetik didga ega shaxs sifatida tarbiyalashda ta'limning barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning o'rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, musiqa ta'limi tizimi va unda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqa san'ati inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi, uning ichki kechinmalarini boyituvchi, estetik qarashlarini shakllantiruvchi noyob tarbiya vositasidir. U insonda go'zallikni his etish, uni qadrlash va yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois musiqa o'qituvchisining faoliyati nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida pedagogning shaxsiy fazilatlarini, ayniqsa, uning ijodkorligi, tashabbuskorligi va badiiy salohiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning badiiy mahoratini rivojlantirishni muhim pedagogik vazifa sifatida belgilaydi. Chunki badiiy mahorat o'qituvchining kasbiy faoliyatida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. U orqali o'qituvchi musiqa asarining mazmunini chuqur anglab, uni o'quvchilarga ta'sirchan tarzda yetkazadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining badiiy mahorati uning ijrochilik qobiliyati, sahna madaniyati, musiqiy tafakkuri, estetik didi va ijodiy yondashuvining uyg'unlashgan tizimidan iboratdir. Ushbu sifatlar pedagogik tayyorgarlik jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi va takomillashadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan o'quv jarayonining mazmuni va metodlari ham aynan shu yo'nalishga qaratilgan bo'lishi zarur. Hozirgi davrda musiqa o'qituvchisiga qo'yilayotgan talablar ancha kengaygan. U nafaqat o'z fanini mukammal bilishi,

balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllay olishi, oʻquvchilar bilan samarali muloqot oʻrnatishi, ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab, rivojlantira olishi kerak. Shu bilan birga, u sahnada oʻzini erkin tutadigan, yuqori darajadagi ijrochilik mahoratiga ega boʻlgan, estetik didi rivojlangan ijodkor shaxs boʻlishi lozim.

Umumiy pedagogik tayyorgarlik jarayoni boʻlajak oʻqituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda talaba pedagogika, psixologiya, metodika kabi fanlar bilan bir qatorda, amaliy mashgʻulotlar orqali oʻz kasbiy koʻnikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, musiqa taʼlimida amaliy faoliyatning oʻrni beqiyos boʻlib, u talabaning badiiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy mahoratni rivojlantirish jarayoni murakkab va koʻp qirrali boʻlib, u doimiy izlanish, mashq va tajriba talab etadi. Bu jarayonda talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish, uning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba oʻziga xos ijodiy salohiyatga ega boʻlib, uni toʻgʻri yoʻnaltirish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi musiqa taʼlimi jarayoniga ham sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Multimedia vositalari, audio va video materiallar, onlayn platformalar yordamida taʼlim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining badiiy mahoratini oshirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Bundan tashqari, darsdan tashqari faoliyatlar - musiqiy toʻgaraklar, konsertlar, tanlov va festivallar ham badiiy mahoratni rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi. Bunday faoliyatlar talabaning sahna tajribasini oshiradi, uning oʻziga boʻlgan ishonchini mustahkamlaydi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, boʻlajak musiqa oʻqituvchisining badiiy mahoratini oshirish umumiy pedagogik tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni uygʻunlashtirish, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish, ijodiy muhit yaratish zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi - umumiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida boʻlajak musiqa oʻqituvchisining badiiy mahoratini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, samarali metod va usullarni aniqlash hamda bu boradagi dolzarb muammolarni yoritishdan iboratdir.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) badiiy mahorat tushunchasining mohiyatini ochib berish;
- b) musiqa oʻqituvchisining kasbiy faoliyatida badiiy mahoratning oʻrnini aniqlash;
- c) pedagogik tayyorgarlik jarayonida badiiy mahoratni rivojlantirish omillarini tahlil qilish;
- d) samarali metod va usullarni yoritish;
- e) mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllarini koʻrsatish.

Mazkur tadqiqot natijalari musiqa taʼlimi sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, talaba-yoshlar hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Badiiy mahorat tushunchasi musiqa pedagogikasi va sanʼatshunoslikda muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha shaxsning sanʼatni chuqur anglash, uni estetik jihatdan idrok etish va ijodiy tarzda ifodalash qobiliyatlarini oʻzida mujassam etadi. Ayniqsa, boʻlajak musiqa oʻqituvchilari uchun badiiy mahorat kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi boʻlib, u pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Badiiy mahorat - bu faqatgina musiqa asarini texnik jihatdan toʻgʻri ijro etish emas, balki uning mazmun-mohiyatini chuqur his etish, obrazini ochib berish va tinglovchiga taʼsirchan tarzda yetkazish sanʼatidir. Shu jihatdan qaraganda, badiiy mahorat murakkab va koʻp qirrali tizim boʻlib, u bir necha oʻzaro bogʻliq komponentlardan tashkil topadi.

Avvalo, badiiy mahoratning asosiy tarkibiy qismlaridan biri - musiqiy eshitish va idrok etish qobiliyatidir. Musiqiy eshitish (intonatsion eshitish, ritmik eshitish, garmonik eshitish) oʻqituvchiga musiqa asarining ohangdorligini, ritmik tuzilishini va ichki uygʻunligini anglash imkonini beradi. Bu qobiliyat rivojlangan boʻlsa, oʻqituvchi nafaqat asarni toʻgʻri ijro etadi, balki oʻquvchilarga ham uni aniq va tushunarli tarzda oʻrgata oladi. Musiqiy idrok esa asarning badiiy obrazini his etish, undagi emotsional rang-baranglikni anglash bilan bogʻliq boʻlib, u oʻqituvchining estetik tafakkurini shakllantiradi.

Ikkinchi muhim komponent - ijrochilik mahoratidir. Ijrochilik mahorati vokal va cholgʻu ijrochiligi koʻnikmalarini oʻz ichiga oladi. Bu koʻnikmalar texnik va badiiy jihatlarining uygʻunligida namoyon boʻladi. Texnik jihat — bu tovush chiqarish, nafas olish, artikulyatsiya, diapazon, tezlik kabi elementlarni oʻz ichiga olsa, badiiy jihat - bu ifodaviylik, dinamika, frazalash, obraz yaratish kabi omillarni qamrab oladi. Ijrochilik mahorati muntazam mashq, sahna tajribasi va repertuar bilan ishlash orqali shakllanadi.

Badiiy mahoratning yana bir muhim tarkibiy qismi - sahna madaniyatidir. Sahna madaniyati oʻqituvchining tashqi koʻrinishi, sahnada oʻzini tutishi, mimika va jestlardan toʻgʻri foydalanishi, auditoriya bilan muloqot oʻrnatish qobiliyatini oʻz ichiga oladi. Sahna madaniyati rivojlangan oʻqituvchi tinglovchilar eʼtiborini jalb eta oladi, ularni musiqa asari bilan ruhiy jihatdan bogʻlaydi. Bu esa taʼlim jarayonida oʻquvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, badiiy mahorat tarkibiga estetik did ham kiradi. Estetik did — bu shaxsning goʻzallikni anglash, uni baholash va undan zavqlanish qobiliyatidir. Musiqa oʻqituvchisida estetik did rivojlangan boʻlsa, u oʻquvchilarga sifatli musiqiy asarlarni tanlash, ularni tahlil qilish va baholashni oʻrgata oladi. Estetik did milliy va jahon musiqa merosini chuqur oʻrganish, turli janr va uslublar bilan tanishish orqali shakllanadi.

Badiiy mahoratning muhim jihatlaridan yana biri - musiqiy tafakkurdir. Musiqiy tafakkur bu musiqa asarining ichki tuzilishini, uning gʻoyaviy mazmunini, obrazlar tizimini anglash jarayonidir. Musiqiy tafakkur rivojlangan oʻqituvchi asarni tahlil qila oladi, uning badiiy xususiyatlarini ochib bera oladi va oʻquvchilarga tushunarli qilib yetkazadi. Bu esa taʼlim jarayonining sifatini oshiradi. Bundan tashqari, badiiy mahorat ijodiy yondashuv bilan chambarchas bogʻliqdir. Ijodiy yondashuv oʻqituvchining yangilikka intilishi, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil eta olishi, oʻziga xos uslub yaratishi bilan namoyon boʻladi. Ijodiy oʻqituvchi har bir darsni yangi gʻoyalar asosida tashkil etadi, oʻquvchilarning faol ishtirokini taʼminlaydi va ularning qiziqishini oshiradi.

Badiiy mahoratning tarkibiy tuzilishini tizimli ravishda quyidagi asosiy komponentlarga ajratish mumkin:

1. Musiqiy eshitish va idrok etish qobiliyati - musiqani anglash va his etish asosidir.
2. Ijrochilik mahorati - vokal va cholgʻu ijrochiligidagi texnik va badiiy koʻnikmalar majmui.
3. Sahna madaniyati - sahnadagi xulq-atvor va tashqi ifoda vositalari.
4. Estetik did - musiqiy goʻzallikni anglash va baholash qobiliyati.
5. Musiqiy tafakkur - asarning mazmunini tahlil qilish va tushunish jarayoni.
6. Ijodiy yondashuv - yangilikka intilish va mustaqil fikrlash qobiliyati.

Ushbu komponentlar oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, biri ikkinchisini toʻldiradi. Masalan, musiqiy eshitish rivojlangan boʻlsa, ijrochilik mahorati ham yuqori boʻladi; estetik did shakllangan boʻlsa, sahna madaniyati yanada mukammal namoyon boʻladi. Shu sababli badiiy mahoratni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi.

Badiiy mahoratning shakllanish jarayoni uzluksiz boʻlib, u taʼlim jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Dastlabki bosqichda asosiy eʼtibor texnik koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilsa, keyingi bosqichlarda badiiy ifodaviylik va ijodiy yondashuvni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda amaliy mashgʻulotlar, sahna chiqishlari, mustaqil ishlar va ijodiy topshiriqlar muhim rol oʻynaydi. Shu bilan birga, badiiy mahoratni rivojlantirishda individual yondashuv ham muhimdir. Har bir talabaning qobiliyati, qiziqishi va ijodiy salohiyati turlicha boʻlganligi sababli, pedagog ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlashi zarur. Bu esa taʼlim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy mahorat boʻlajak musiqa oʻqituvchisining kasbiy tayyorgarligida markaziy oʻrin egallaydi. U nafaqat oʻqituvchining ijrochilik darajasini, balki uning pedagogik faoliyat samaradorligini ham belgilaydi. Shu bois badiiy mahoratni rivojlantirishga kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

**Pedagogik tayyorgarlik jarayonida badiiy mahoratni shakllantirish omillari.** Boʻlajak musiqa oʻqituvchisining badiiy mahoratini shakllantirish murakkab, koʻp bosqichli va tizimli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat individual qobiliyatlarning rivojlanishiga, balki pedagogik muhit, taʼlim mazmuni, metodik yondashuvlar va ijodiy faoliyatning toʻgʻri tashkil

etilishiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli badiiy mahoratni rivojlantirishda ta'sir etuvchi asosiy omillarni ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, badiiy mahoratni shakllantirishda nazariy bilimlarning mustahkamligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Musiqa nazariyasi, solfedjio, garmoniya, musiqa tarixi kabi fanlarni chuqur o'zlashtirish talabani musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu bilimlar orqali talaba musiqa asarining ichki tuzilishini, uning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglaydi. Nazariy tayyorgarlik yetarli bo'lmagan taqdirda esa badiiy ifodaviylik yuzaki xarakter kasb etadi. Shu bois nazariy va amaliy bilimlar o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilishi zarur.

Ikkinchi muhim omil - amaliy mashg'ulotlarning samarali tashkil etilishidir. Amaliy mashg'ulotlar badiiy mahoratni shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Vokal mashqlar, cholg'u ijrochiligi, ansambl va xor faoliyati orqali talaba o'z ijrochilik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Ayniqsa, muntazam mashq qilish, repertuar bilan ishlash va ijro jarayonini tahlil qilish badiiy mahoratni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Amaliy mashg'ulotlar davomida talaba o'z xatolarini anglab, ularni bartaraf etishga o'rganadi, bu esa uning professional darajasini oshiradi.

Uchinchi omil - ijodiy muhitning mavjudligidir. Ta'lim jarayonida ijodiy muhit yaratish talabani erkin fikrlashiga, tashabbus ko'rsatishiga va o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beradi. Ijodiy muhit mavjud bo'lgan sharoitda talaba faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki yangi g'oyalarni yaratishga intiladi. Bu esa uning badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Pedagog ijodiy muhitni shakllantirish uchun dars jarayonida interaktiv metodlardan, ijodiy topshiriqlardan va muammoli vaziyatlardan foydalanishi lozim.

To'rtinchi muhim omil - o'qituvchining shaxsiy namunasi va pedagogik mahoratidir. Tajribali va yuqori badiiy saviyaga ega pedagog talabalarga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining ijrochilik darajasi, sahna madaniyati, nutqi, dars o'tish uslubi talaba uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli pedagogning o'zi ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, kasbiy mahoratini oshirib borishi zarur.

Beshinchi omil - sahna amaliyoti va ijodiy faoliyatning tashkil etilishidir. Konsertlar, tanlovlar, festivallar, sahna chiqishlari talabani badiiy mahoratini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Sahna tajribasi orqali talaba o'zini auditoriya oldida erkin tutishni, o'z ijrosini boshqarishni va tinglovchilar bilan muloqot o'rnatishni o'rganadi. Bu jarayon talabani o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uning ijrochilik salohiyatini yanada rivojlantiradi.

Oltinchi omil - individual yondashuv hisoblanadi. Har bir talabani qobiliyati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lganligi sababli, pedagog ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llashi zarur. Individual mashg'ulotlar, qobiliyatga mos topshiriqlar va shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash orqali talabani badiiy salohiyatini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

Yettinchi omil - zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Multimedia vositalari, audio va video yozuvlar, interaktiv dasturlar yordamida ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Masalan, mashhur ijrochilarning chiqishlarini tahlil qilish, o'z ijrosini yozib olib, uni tahlil qilish talabani o'z ustida ishlashiga katta yordam beradi. Bu usullar orqali talaba o'z xatolarini ko'radi va ularni tuzatishga intiladi.

Sakkizinchi omil - motivatsiya va rag'batlantirish tizimidir. Talabani badiiy mahoratini rivojlantirish uchun uning ichki qiziqishi va intilishlari muhim rol o'ynaydi. Pedagog tomonidan yaratilgan rag'batlantiruvchi muhit, ijobiy baholash, muvaffaqiyatlarni e'tirof etish talabani motivatsiyasini oshiradi. Natijada u o'z ustida ko'proq ishlashga harakat qiladi.

Yuqoridagi omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda badiiy mahoratni shakllantirishning yagona tizimini tashkil etadi. Agar ushbu omillar kompleks tarzda va uyg'un holda qo'llanilsa, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tayyorgarlik jarayonida badiiy mahoratni shakllantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u nazariy bilimlar, amaliy faoliyat, ijodiy muhit, individual yondashuv va zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligida amalga oshiriladi. Shu bois ta'lim jarayonini tashkil

etishda ushbu omillarga alohida e'tibor qaratish, ularni tizimli ravishda joriy etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

**Badiiy mahoratni rivojlantirishning metod va usullari.** Bo'lajak musiqa o'qituvchisining badiiy mahoratini rivojlantirish pedagogik tayyorgarlik jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun turli metod va usullardan kompleks tarzda foydalanish zarur. Chunki badiiy mahorat faqat nazariy bilimlar asosida emas, balki amaliy faoliyat, ijodiy izlanish va pedagogik yondashuvlar orqali shakllanadi.

Avvalo, badiiy mahoratni rivojlantirishning eng muhim metodlaridan biri - muntazam amaliy mashg'ulotlar metodidir. Bu metod vokal va cholg'u ijrochiligi mashqlarini o'z ichiga oladi. Talaba har kuni o'z ustida ishlash orqali texnik ko'nikmalarni takomillashtiradi, tovush chiqarish, nafas olish, artikulyatsiya kabi elementlarni mukammallashtiradi. Muntazam mashq qilish nafaqat texnik darajani oshiradi, balki badiiy ifodaviylikni ham rivojlantiradi.

Ikkinchi muhim metod - musiqiy asarlarni tahlil qilish metodidir. Bu metod orqali talaba asarning garmonik tuzilishi, ritmik xususiyatlari, melodik rivoji va badiiy obrazlarini o'rganadi. Tahlil jarayoni talabaning musiqiy tafakkurini rivojlantiradi, uni mustaqil fikrlashga undaydi. Natijada talaba asarni ongli ravishda ijro etishga o'rganadi.

Uchinchi metod - ko'rgazmali-taqlidiy metod hisoblanadi. Bu metodda o'qituvchi o'z ijrosi orqali talabalarga namuna ko'rsatadi. Shuningdek, mashhur ijrochilarning chiqishlarini tinglash va kuzatish ham ushbu metod doirasiga kiradi. Taqlid qilish orqali talaba o'zida kerakli ijro uslublarini shakllantiradi. Biroq bu jarayonda mustaqil ijodiy yondashuvni ham rivojlantirish muhimdir.

To'rtinchi metod - interaktiv o'qitish metodlaridir. Bular jumlasiga guruhli ishlash, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, improvizatsiya mashqlari kiradi. Interaktiv metodlar talabaning faol ishtirokini ta'minlaydi, uning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ayniqsa, improvizatsiya mashqlari badiiy mahoratni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, chunki ular talabaning musiqiy tasavvurini kengaytiradi.

Beshinchi metod - ijodiy topshiriqlar metodidir. Bu metod talabalarga mustaqil ravishda musiqa yaratish, kichik kompozitsiyalar tuzish, sahna ko'rinishlari tayyorlash kabi vazifalarni berishni o'z ichiga oladi. Ijodiy topshiriqlar talabaning mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi, uning ichki salohiyatini ochib beradi.

Oltinchi metod - refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish metodidir. Talaba o'z ijrosini tinglab, undagi yutuq va kamchiliklarni aniqlaydi. Bu metod orqali talaba o'z ustida ishlashga o'rganadi, o'z faoliyatini baholash ko'nikmasi shakllanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'z ijrosini yozib olib, uni tahlil qilish bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Yettinchi metod - axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdir. Multimedia vositalari, musiqa dasturlari, onlayn platformalar orqali mashg'ulotlarni tashkil etish talabaning bilim va ko'nikmalarini kengaytiradi. Audio va video materiallar asosida o'qitish badiiy mahoratni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu metodlar o'zaro uyg'un holda qo'llanilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri tanlash va qo'llash pedagogning mahoratiga bog'liqdir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy shakllanishida ijodiy faoliyat muhim o'rin tutadi. Chunki musiqa san'ati o'z mohiyatiga ko'ra ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda nafaqat mavjud bilim va ko'nikmalarni qo'llash, balki yangilik yaratish, o'ziga xos uslubni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli pedagogik tayyorgarlik jarayonida talabalarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish badiiy mahoratni oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijodiy faoliyat - bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangi shaklda qo'llash, mustaqil fikrlash va muammolarni noodatij usulda hal qilish qobiliyatidir. Musiqa ta'limida ijodiy faoliyat turli shakllarda namoyon bo'ladi: improvizatsiya, kompozitsiya yaratish, musiqiy asarlarni talqin qilish, sahna ko'rinishlarini tayyorlash va boshqalar. Ushbu faoliyat turlari talabaning nafaqat ijrochilik mahoratini, balki uning badiiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Ijodiy faoliyatning badiiy mahoratga ta'siri bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi. Avvalo, u talabani musiqiy tasavvurini kengaytiradi. Talaba yangi g'oyalarni izlash jarayonida musiqaning turli elementlarini chuqur o'rganadi, ularni o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Bu esa uning ijrochilik jarayonida erkin va mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

Ikkinchidan, ijodiy faoliyat talabani emotsional ifodaviyligini oshiradi. Musiqa asarini ijro etishda faqat texnik jihatlar emas, balki uning ruhiy mazmunini yetkazish ham muhimdir. Ijodiy faoliyat bilan shug'ullangan talaba asarning ichki mazmunini chuqurroq his etadi va uni tinglovchiga ta'sirchan tarzda yetkazishga intiladi.

Uchinchidan, ijodiy faoliyat talabani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Mustaqil ravishda yaratilgan ijodiy mahsulot (kuy, qo'shiq, sahna chiqishi) talaba uchun katta motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu esa uning sahnada o'zini erkin tutishiga, o'z imkoniyatlariga ishonch bilan yondashishiga yordam beradi.

To'rtinchidan, ijodiy faoliyat pedagogik mahoratni ham rivojlantiradi. Ijodkor o'qituvchi dars jarayonini bir xil qolipda olib bormaydi, balki har bir darsni yangi g'oyalar asosida tashkil etadi. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

- a) Ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun pedagogik jarayonda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:
- b) improvizatsiya mashqlarini keng qo'llash;
- c) kichik kompozitsiyalar yaratishga undash;
- d) sahna ko'rinishlari va ijodiy loyihalarni tashkil etish;
- e) mustaqil ijodiy ishlarni rag'batlantirish;
- f) talabalarning ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Bundan tashqari, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda erkin va qulay muhit yaratish muhimdir. Talaba o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, xatolardan qo'rqmaydigan muhitda ijodkorlik faolroq rivojlanadi. Pedagog bu jarayonda yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolni bajarishi zarur.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, umumiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchisining badiiy mahoratini rivojlantirish murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon o'z ichiga nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar, ijodiy faoliyat, sahna tajribasi hamda pedagogik yondashuvlarning uyg'unligini oladi. Badiiy mahorat esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida uning pedagogik faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, badiiy mahoratning shakllanishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida nazariy tayyorgarlikning mustahkamligi, amaliy mashg'ulotlarning tizimliliigi, ijodiy muhitning mavjudligi, sahna faoliyatining kengligi va individual yondashuvning to'g'ri tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ham ushbu jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy mahoratni rivojlantirishda turli metod va usullardan kompleks foydalanish zarurligi asoslab berildi. Xususan, amaliy mashg'ulotlar, musiqiy tahlil, interaktiv metodlar, ijodiy topshiriqlar hamda refleksiya usullari talabani ijrochilik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, sahna madaniyatini shakllantirish ham bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutishi qayd etildi.

Ijodiy faoliyat esa badiiy mahoratni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida talabani musiqiy tafakkurini kengaytiradi, uning emotsional ifodaviyligini oshiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa kelajakda uning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida badiiy mahoratni rivojlantirishda uchraydigan ayrim muammolar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etildi. Jumladan, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, sahna faoliyatini kengaytirish, motivatsiyani oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ushbu yo'nalishda muhim chora-tadbirlar sifatida belgilandi.

Umuman olganda, bo'lajak musiqa o'qituvchisining badiiy mahoratini rivojlantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, uni samarali tashkil etish orqali yuqori malakali, ijodkor va zamonaviy talablar darajasidagi pedagog kadrlarni tayyorlash mumkin. Bu esa o'z navbatida yosh avlodning estetik tarbiyasini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Abdullayeva Q. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
3. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. – Москва: Наука, 1947. – 335 с.
4. Yo'ldashev B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 180 b.
5. Петрушин В.И. Музыкальная психология. – Москва: Академический проект, 2008. – 400 с.
6. Qodirov R.G. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: Musiqa, 2018. – 192 b.
7. Nurmatov S. San'at pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 256 b.
8. Rajabov Sh.B. Increasing interest in classical music based on gender approach of university school teenagers. – “Solution of social problems in management and economy” International scientific-online conference. – Madrid, Spain: AID, 2024. – Issue 5, Part 1. 155–158 p.
9. Rajabov Sh.B. O'zbek mumtoz musiqasining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashdagi ahamiyati. – Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2023. – 2(1). 96–99 b.
10. Rajabov Sh.B. Pedagogical necessity of developing artistic ability in future music teachers. – International Journal of Pedagogics, 2025. – Vol. 5, Issue 3. 232-234 p.

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].